



## IN SEARCH OF KNOWLEDGE TO EUROPE: THE FATE OF JADID WOMAN MARYAM SULTONMURODOVA

*Aziza Murodova*

*Basic doctoral student of Shahrizabz State Pedagogical Institute  
Shahrizabz, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Jadid movement, Jadid woman, Maryam Sultonmurodova, enlightenment, national awakening.

**Received:** 02.12.25

**Accepted:** 03.12.25

**Published:** 04.12.25

**Abstract:** This article examines the socio-philosophical role of women within the Jadid movement of early twentieth-century Turkestan through the life of Maryam Sultonmurodova. The study focuses on enlightenment ideals, women's pursuit of education abroad, and the tragic consequences of repression under a totalitarian regime. Maryam Sultonmurodova's life is interpreted as a model of dedication, moral courage, and national responsibility.

## ILM ISTAB YEVROPAGA: JADID AYOLI MARYAM SULTONMURODOVA TAQDIRI

*Aziza Murodova*

*Tayanch doktoranti  
Shahrizabz davlat pedagogika instituti  
Shahrizabz, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit soʻzlar:** jadidchilik, jadid ayoli, Maryam Sultonmurodova, ilm va maʼrifat, milliy uygʻonish, ijtimoiy falsafa.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati kontekstida ayol shaxsining ijtimoiy-falsafiy oʻrni va ahamiyati Maryam Sultonmurodovaning hayot yoʻli misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda jadidlar tomonidan ilgari surilgan maʼrifatparvarlik gʻoyalari, ayolning ilm va kasb orqali jamiyat hayotida faol subyektga aylanish jarayoni hamda bu yoʻldagi fidoyilik va fojiali taqdir masalalari ochib beriladi. Maqolada Maryam Sultonmurodovaning xorijda taʼlim olishi, ilmiy-maʼrifiy faoliyati va mustabid tuzum

tomonidan ta'qib qilinishi ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida yoritilib, jadid ayolining ma'naviy jasorati va tarixiy mas'uliyatga asoslanuvchi xulosalar chiqariladi.

## В ПОИСКАХ ЗНАНИЙ В ЕВРОПЕ: СУДЬБА ДЖАДИДСКОЙ ЖЕНЩИНЫ МАРЬЯМ СУЛТАНМУРОВОЙ

*Азиза Муродова*

*Базовый докторант*

*Шахрисабзского государственного педагогического института*

*Шахрисабз, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

<p><b>Ключевые слова:</b> джадидизм, джадидская женщина, Султанмуродова, национальное возрождение.</p>	<p><b>Аннотация:</b> В статье анализируется социально-философская роль женщины в джадидском движении начала XX века на примере жизненного пути Марьям Султанмуродовой. Рассматриваются идеи просветительства, стремление женщин к знанию и профессиональной реализации, а также трагедия личности в условиях тоталитарного режима. Жизнь Марьям Султанмуродовой представлена как символ жертвенности и духовной стойкости джадидской женщины.</p>
--	---

Jadidchilik harakati va uning merosi bugungi kunda nafaqat tarixiy obyekt, balki milliy-ma'naviy, ilmiy va madaniy rivoj uchun muhim manba sifatida qaralmoqda. Jadidlar ko'rsatgan ilmiy va ma'rifiy yo'l, ayollar va yoshlarga bergan ta'lim hamda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish g'oyalari hozirgi kun talablari bilan uzviy bog'liq. Ularning merosini chuqur o'rganish, targ'ib qilish va yosh avlodga yetkazish milliy ongini boyitish, ijtimoiy faoliyatni rivojlantirish va zamonaviy ma'rifatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev: "Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo'qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko'rsatib bergan yo'ldan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir." Ushbu so'zlar shuni bildiradiki, jadidlar merosini o'rganish va targ'ib etish nafaqat tarixiy adolatni tiklash, balki bugungi kunda yoshlar tarbiyasida, jamiyatning ma'naviy va madaniy rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Yangi O'zbekistonda bu meros yosh qizlar va ayollar uchun ibrat bo'lib, ularni ilm, ma'rifat va jamiyat manfaatiga xizmat qilishga ilhomlantiradi.

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida yuz bergan jadidchilik harakati jamiyat taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Jadidchilik mamlakatni qoloqlikdan olib chiqish, millatni ilm va tafakkur orqali yuksaltirishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ydi. Bu yo'lda jadidlar ta'lim, matbuot, madaniyat va tarbiya masalalarini eng muhim ustuvor vazifa sifatida ko'rganlar.

Jadidlar qarashlarida ayol masalasi alohida ahamiyat kasb etdi. Chunki ular jamiyatning ma'naviy holatini ayol saviyasi bilan bevosita bog'liq deb bildilar. Ayol savodsiz bo'lgan joyda taraqqiyot bo'lishi mumkin emasligini anglagan jadidlar xotin-qizlarni ilmi qilish, ularni ijtimoiy hayotga olib chiqish zarurligini ta'kidladilar. Aynan shu nuqtada jadidchilik harakati ayollarning jamiyatdagi an'anaviy mavqeini o'zgartirishga qaratilgan katta madaniy siljishni boshlab berdi. Ana shunday tarixiy jarayonda yetishib chiqqan jadid ayollardan biri Maryam Sultonmurodovadir. Uning hayot yo'li jadidlar ilgari surgan ma'rifiy g'oyalarning amaliy natijasi bo'lish bilan birga, mustabid tuzum sharoitida bu g'oyalar egalari qanday fojiali taqdirga duch kelganini ham ko'rsatadi.

Maryam Sultonmurodovaning ta'limiy yo'li va shakllanishi. Maryam Sultonmurodova (Maryam Jumaniyozova) 1905-yil 13-fevralda Xiva shahrida tug'ildi. Uning bolalik va o'smirlik yillari jadidchilik g'oyalari keng tarqala boshlagan davrga to'g'ri keldi. 1911-yilda Urganchdagi yangi usul jadid maktabida, keyinchalik To'rtko'ldagi jadid maktabida tahsil olishi Maryamning dunyoqarashi va tafakkurining shakllanishida muhim rol o'ynadi. Jadid maktablarida ta'lim olgan Maryam erta yoshidan ilmga bo'lgan qiziqishi, mustaqil fikrlashi va yangilikka intilishi bilan ajralib turgan. Ushbu maktablarda berilgan bilimlar unga nafaqat savod, balki jamiyat oldidagi mas'uliyat hissini ham singirdi. Toshkentdagi maorif gimnaziyasini tamomlashi esa uning ilmiy tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqdi. Bilim olishni davom ettirish istagi Maryamni Orenburg tatar pedagogika institutiga olib bordi. Bu yerda u o'zining pedagogik va ilmiy dunyoqarashini yanada boyitdi. Jadidlar nazarida xorijiy yoki mintaqaviy ilg'or bilimlarni egallash millat manfaatiga xizmat qilishi lozim edi. Maryam ana shu g'oyani chuqur anglagan ayollardan biri edi.

1922-yilda Buxoro hukumati tomonidan Germaniyaga yuborilgan talabalar safidan joy olishi uning hayotidagi muhim burilish bo'ldi. Germaniyada u avval tayyorlov kurslarida, keyinchalik Darmstadt shahridagi "Viktoriya" o'qituvchilar seminariyasida tahsil oldi. "Fraunshul" ayollar maktabidagi amaliyot hamda Berlinda hamshiralik kurslarini bitirishi Maryamning zamonaviy kasblarni egallash va jamiyatda foydali bo'lish istagini ifodalaydi.

Vatanga qaytish va ta'qiblar boshlanishi. 1928-yilda Maryam Sultonmurodova ilm va tajriba bilan vataniga qaytdi. U jadidlar orzu qilganidek, xorijda o'rganilgan bilimlarni yurt taraqqiyotiga yo'naltirish niyatida edi. Biroq mustabid siyosiy tuzum bunday bilimli, mustaqil fikrli ayolni

jamiyat uchun emas, balki xavf sifatida qabul qildi. Dastlab unga ish berilmasligi, keyinchalik cheklangan lavozimlarda ishlashga majbur bo'lishi jadid ayollariga nisbatan yuritilgan siyosatning yaqqol ko'rinishi edi. Shunga qaramay, u hamshiralik, jurnalistlik faoliyati orqali jamiyatga xizmat qilishdan to'xtamadi. "Guliston" va "Yorqin turmush" jurnallaridagi faoliyati Maryam Sultonmurodovaning ma'rifiy ruhdan voz kechmaganini ko'rsatadi. 1937-yilda boshlangan qatag'onlar Maryam taqdirini keskin o'zgartirdi. Hech qanday asosli dalillarsiz "vatanga xiyonat", "davlat sirlarini sotish" kabi ayblovlar bilan qamoqqa olinib, 10 yilga hukm qilinishi uning shaxsiy fojiasi bo'lish bilan birga, butun jadid avlodiga qarshi qaratilgan siyosatning bir qismi edi.

Surgun, oqlanish va so'nggi yillar. Jazo muddati tugagach, Maryam Sultonmurodova vatanga qaytdi. Ammo 1949-yilda "eski jinoyatlar" bahonasida yana qayta qamoqqa olinib, Krasnoyarsk o'lkasiga surgun qilindi. Bu holat uning hayotidagi eng og'ir sinovlardan biri bo'ldi. U o'z arizalarida Berlindagi talabalar uyushmasi faoliyati faqat ilmiy-ma'rifiy uchrashuvlardan iborat bo'lganini ta'kidladi. 1957-yil 2-avgustda SSSR Oliy sudi tomonidan to'liq oqlanishiga qaramay, Maryam o'zining sevimli sohasi — jurnalistika va ma'rifat ishlariga qayta olmadi. Bu mustabid tuzum tomonidan ma'naviy jazolashning davom etganini anglatadi.

1971-yilda Maryam Sultonmurodovaning og'ir sinovlarga boy hayoti yakun topdi. Uning umri jadid ayolining ilm yo'lidagi fidoyiligi va bu yo'lda ko'rgan zulmlarining ramziy ifodasiga aylandi.

Maryam Sultonmurodovaning ijodi nafaqat uning hayotiy faoliyati bilan, balki adabiy merosi bilan ham e'tiborga loyiqdir. U yaratgan "Rahmat desinlar", "Majnuntol", "Qalbim nidosi", "Mehr ko'zda", "Karvonlar kelganda", "Kutilmagan baxt" va "Betamiz yigit" kabi hikoyalar o'quvchiga o'sha davr ijtimoiy haqiqatini, insoniylik va fidoyilik ruhini yetkazadi. Har bir asarida Maryam Sultonmurodova shaxsiy hayotiy tajribasi, milliy ma'naviyatga sodiqligi va jamiyatdagi adolatparvarlik g'oyalari bilan o'quvchini tanishtiradi. "Rahmat desinlar" hikoyasida u kishilik va minnatdorlik tushunchalarini, insonning o'z davriga va jamiyatga nisbatan mas'uliyatini yoritadi. "Majnuntol" va "Qalbim nidosi" asarlarida inson ruhiy dunyosi, sevgi va sadoqat masalalari orqali jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy muammolarini ochib beradi. Shu bilan birga, "Mehr ko'zda" va "Karvonlar kelganda" hikoyalari orqali u o'tmish va bugungi kun qadriyatlarini uyg'unlashtirishga harakat qiladi, yosh avlodga tarixiy tajriba va insoniy qadriyatlarni yetkazadi. "Kutilmagan baxt" va "Betamiz yigit" esa shaxsiy fidoyilik, jasorat va irodani ifodalaydi, o'quvchini milliy o'zlik va ijtimoiy mas'uliyatga chaqiradi.

Maryam Sultonmurodova o'zining ilmiy-ma'rifiy faoliyati bilan birga adabiy ijod orqali ham yurtimiz ozodligi yo'lida jonini fido qilgan jasur ayol sifatida tarix sahifalarida qoldi. Uning hikoyalari nafaqat o'tmishdagi adabiy merosni yoritadi, balki bugungi kun yosh avlodini ham ma'naviy jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. Har bir hikoya orqali u ijtimoiy adolat, insoniylik

va fidoyilik g'oyalari targ'ib qiladi, o'quvchini milliy qadriyatlar, bilim va ma'rifatga intilish ruhida tarbiyalaydi. Shu jihatdan qaraganda, Sultonmurodovning merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki bugungi kun ijtimoiy-ma'naviy hayotiga ham beqiyos hissa qo'shadi. Uning hayoti va ijodi yosh qizlar va ayollarni ilm-fan, jamiyat foydasi va milliy o'zlik yo'lida fidoyilik bilan harakat qilishga ilhomlantiradi. Maryam Sultonmurodovning asarlari orqali o'quvchi nafaqat adabiy zavq oladi, balki insoniy qadriyatlarni, fidoyilik va jasoratni qadrlashga o'rganadi. Shu tariqa, uning hikoyalari bugungi kun o'zbek jamiyati uchun ham, Yangi O'zbekiston qizlari va ayollari uchun ham ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy va ma'rifiy meros sifatida qadrlanadi

Xulosa qilib aytadigan bo'sak, Maryam Sultonmurodovning hayot yo'li jadidchilik harakatida ayol shaxsining naqadar muhim o'rin tutganini yaqqol ko'rsatadi. U ilmni millat xizmatiga bag'ishlashga intilgan, biroq mustabid tizim tomonidan e'tirof etilmagan fidoyi ayol timsolidir. Uning taqdiri jadid ayolining ma'naviy jasorati, sabr-toqati va tarixiy mas'uliyatini ifodalaydi. Bugungi kunda Maryam Sultonmurodova hayoti nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki yosh avlod, xususan, yangi O'zbekiston qizlari uchun beqiyos ibrat maktabidir. Ularning ilm olish, kasb-hunar egallash va jamiyatda faol subyekt sifatida o'z o'rnini topish istagini kuchaytiradi. Maryamning fidoyiligi va ma'rifatga bo'lgan sadoqati yangi avlod qizlariga ijtimoiy mas'uliyatni anglashi, mustaqil fikrlashni rivojlantirishi va millat taraqqiyotida faol ishtirok etishga ilhom bag'ishlaydi. Shuningdek, uning hayoti ayollarning ilmiy, ma'naviy va madaniy rivojlanishi yo'lida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengish mumkinligini ko'rsatadi. Maryam Sultonmurodova zamonaviy O'zbekiston sharoitida ham qizlar va ayollarga o'z bilim va iqtidorlarini to'liq namoyon qilish, ta'lim va kasb-hunar orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish imkoniyatlarini eslatadi. Shu nuqtai nazardan, Maryam Sultonmurodovning merosi faqat tarixiy faktlar majmui emas, balki yosh avlodning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim pedagogik manbadir. U yangi O'zbekiston qizlari uchun bilimga intilish, fidoyilik, jasorat va milliy g'oya yo'lida xizmat qilish timsoli bo'lib xizmat qiladi. Maryamning hayoti va faoliyati bugungi kunning ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazaridan qadrlanadigan, yoshlar tarbiyasida asosiy ibrat sifatida ko'rsatish mumkin bo'lgan naqadar muhim merosdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. Mamatkulov D, Irzayev B. Tanilmagan ayol jadidlar. — Toshkent: 65 bet.
3. Mamatkulov D, Irzayev B. Tanilmagan jadidlar taqdiri: milliy o'zlik va istiqloq g'oyalari. — Toshkent: 104 bet.
4. Mash'um davr mazlumalari. Jadid gazetasi, 2024-yil 15-mart, 12-son